O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SAMARQAND VILOYATI
BOSHQARMASI

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel/Faks: 71-203-11-04, E-mail: sam.expert@bk.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Izzatullayev Bexruzjon Xxx
Sana: 15-12-2025 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

268612 - SONLI

Obyekt nomi: Toshkent shahar, Olmazor tumani, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga qarashli 11-uy manzilida joylashgan Sport majmuasi (minbar osti binosi) ni rekonstruksiya qilish.	
Buyurtmachi:	MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
Bosh loyihachi:	"ARX-IDEYA PROJECT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi:	Tender savdolari asosida
Qurilish turi:	Rekonstruksiya
Murojaat raqami:	094359

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli Davlat oliy ta`lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora tadbirlari to`g`risidagi qarori.
1.2. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti 2024 yil uchun tayyorlangan va universitet Kuzatuv Kengashining 2024 yil 01 martdagi kengashi №1-son bayoni bilan tasdiqlangan Biznes reja.
1.3. Toshkent shahar Olmazor tumani qurilish bo’limining 07.08.2024 yildagi 140547093-son ruxsatnomasi.
1.4. Toshkent shahar, Yer tuzish va ko’chmas mulk kadastri Davlat Korxonasining 10:08:05:03:03:0073 sonli Davlat Reyestridan ko’chirma.
1.5. 13.08.2024 yildagi 1726-1726280-196043 sonli ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH TOPSHIRIG’I.
1.6. Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 10.09.2025 yildagi 210589753-sonli xulosasi.
1.7. "TOSHKENT SHAHAR SUV TA’MINOTI" AJ ning 23.06.2025 yildagi 270/4-2173- son

texnik sharti.
1.8. DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI TOSHKENT SHAHAR FILIALIning 23.07.2025 yildagi 02-01/14-7415-son xulosasi.
1.9. “HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI”AJ“Toshkent shahar elektr tarmoqlari”MCHJning 26.06.2025 yildagi 2628063637-son texnik shartlari.
1.10. Buyurtmachi tomonidan 2024 y. tasdiqlangan loyiha-topshirig`i.
1.11. O`zbekiston Milliy Universiteti Moliya va iqtisodiyot ishlari bo`yicha prorektori V.U.Yodgorov tomonidan tasdiqlangan no`qson dalolatnomasi.
1.12. "O’ZGASHKLITI" MChJ Toshkent shahar va viloyat filialining muhandislik-geologiya sharoitlari hisoboti.
1.13. "SAM MBI EKSPERTIZA" MCHJning 2025 yildagi binolarni texnik holatini o`rganish to`g`risidagi xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. TOM 1- Umumiy tushuntirish xati.
2.2. TOM 2- Joriy narxlardagi resurslar smetasi va ish hajmlari vedomosti.
2.3. TOM 3- Layha xujjatlari:
2.4. TOM 3- Albom - 3.1.1. Bosh reja.
2.5. TOM 3- Albom - 3.1.2. Arxitektura qismi.
2.6. TOM 3- Albom - 3.1.3. Konstruktiv qismi.
2.7. TOM 3- Albom - 3.1.4. Muhandislik tarmoqlari qismi.
2.8. TOM 3- Albom - 3.1.5. Elektr ta`minoti manbai.
2.9. TOM 3- Albom - 3.1.6. Yong'in signalizatsiyasi.
2.10. TOM 3- Albom - 3.1.7. Kichik arxitekturaviy formalar.
2.11. TOM 3- Albom - 3.1.8. Nogironligi bor shaxslar uchun loyiha.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Bosh reja.

Loyihalashtirilayotgan hudud Toshkent shahar Olmazor tumani Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga qarashli 11-uy manzilida joylashgan bo’lib, quyidagi hududlar bilan chegaradosh:
Shimoldan – Sport zali
G‘arbdan – mahalliy ko‘cha
Janubdan – Noturar binolar
Sharqdan – Mavjud stadion
Qurilish maydonida quyidagi qo‘shimcha binolar joylashtirilgan: loyihalanayotgan tribuna, loyihalanayotgan darvoza, mavjud fudbol maydoni, mavjud valeybol maydoni, mavjud basketbol maydoni, yong'in o'chirish qalqoni, yong`inga qarshi gidranti, axlat yig`ish qutisi maydonchasi. Hudud maksimal darajada ko‘kalamzorlashtirilgan va obodonlashtirilgan. Sport majmuasi (minbar osti)ni rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan.

3.2. ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH YECHIMI.

Mavjud tribuna binosi seysmik shov orqali uchta bokdan iborat bo`lib, har bir blok o`lchami oqlari bo`yicha 48,0x14,0 metrni tashkil qiladi. Umumiy o`lchami o`qlari bo`yicha 145,0x14,0 metr. Tribuna ustiga ayvon binosi qurilishi ko`zda tutilgan va o‘lchamlari (o‘qlar bo‘yicha) –11,20 x 146,60 metrni tashkil etadi. Ayvon binoning maksimal balandligi ±0,0 darajadan +11,20 metrni tashkil qiladi.
Ichki pardoz ishlari:
Xonalar eksplikatsiyasi va maqsadi – loyihalash topshirig‘iga muvofiq.

Devorlarni pardozlash - Quruq xonalar – sifatli bo‘yoq bilan,
Nam xonalar – keramik plitka bilan.
Pol qoplamasi - keramik plitka, Relin va Aglomerat.
Qavatlarda – keramogranit, keramik plitka va laminat.
Shiftlar - shpatlyovka, silliqlash, suv emulsiyali bo‘yoq bilan, PVXdan yasalgan osma shiftlar va Armstrong shift tizimini asosi bilan demontaj qilingan.
Derazalar – PVXdan, Eshiklar – MDF va metall.
Tashqi pardoz ishlari:
Poydevor qismi – italogranit plitkalar bilan qoplangan.
Devorlar, pilastrlar, deraza romlari va nishabliklar – Tekislovchi gips suvoq qatlami. Bazalt qoplamasi hamda Suyuq travertin bilan qoplangan.
Eshik oldi maydoni va balkon pol qoplamalari – sirpanchiq bo‘lmagan keramik plitkalar bilan.
Soyabonlar – metalldan, usti leksan bilan yopilgan.
Devorlarning issiqlik izolyatsiyasi – bazalt materialidan.
Tashqi oyna va vitraj blok PVX, ikki kamerali 4-16-4i oyna paketlaridan, yong'inga chidamli va o'z-o'zidan yopilish mexanizmlar o’rnailgan.
Tashqi panjaralar - zanglamaydigan po’latdan.
Kirish qismining soyaboni - Leksan va nikel qoplangan metall karkasdan yasalgan.
Karniz qismi - alyukapon bilan qoplangan.

3.3. Qurilish uchastkasining xususiyatlari.

Iqlim zonasi - 2.
Tashqi harorat t-13 daraja.
Me'yoriy shamol yuki 0,38 kPa.
Me'yoriy qor yuki - 0,5 kPa.
Seysmiklik 9 ball.
2- turdagi cho’kma tuproqlar.

3.4. Tuzilmalarning xususiyatlari.

Kirish L=15,8м
Asos – tuproq yostig’i H=1000mm.
Poydevor – Tasmasimon quyma temir-beton, beton sinfi M B15.
Devor - Metall panjara
Metall karkas
Ayvon binosi 146,6x11,2 metr.
Asos – tuproq yostig’i H=1000mm.
Poydevor – Tasmasimon quyma temir-beton, beton sinfi M B30
Metall karkas
Yopma – metal fermalardan yigilgan.
Tom - metall profil ustidan profilli temir varaq.
Konstruktiv yechim.
binosi o'lchamlari o'qlarda
Shipon 146,6x11,2 metr.
Mustahkam konstruktiv sxemada bajarilgan.
Mavjud tribuna binosida ishchi loyihasida quyidagilar bajarilgan (Blok1 .Blok2. Blok3) 14,0 x48,0 m o'lchamdagi mavjud bloklarda ustunlar va to'sinlarning mavjud konstruksiyalarini mustahkamlash ishlari ko'zda tutilgan. 75x78x5 va 63x63x5 o'lchamdagi metal (po'lat ugalak) yordamida burchaklarida yasalgan metall karkaslar o'rnatish, metal to'r ustidan beton bilan

qoplash - eshik va deraza romlari o'rninlarini mustahkamlash metal (po'lat ugalak) yordamida burchaklarida yasalgan metall karkaslar o'rnatish, metal to'r ustidan shuvoq ishlari.
Qurilishni tashkil etish. (POS).
Qurilishni tashkil etish loyihasi amalga oshirildi.
Qurilish bosh rejasi ishlab chiqilgan.
Qurilish xavfsizligi ko'rsatilgan.
Asosiy qurilish ishlab chiqarish usullari, o'rnatish ishlari ko’rsatilgan.
Qurilishning davomiyligi 10,0 oy.

3.5. NBSH qismi.

Loyihada Nogironligi bo‘lgan shaxslarga qulay va to‘siqlarsiz muhit yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 18-iyuldagi PQ–266-son Qaroriga muvofiq:
- Avtoturargoh hududida nogironligi bo`lgan shaxslar uchun alohida joylar ko`rsatilgan.
- Binoga asosiy kirish qismida zina va nogironligi bo’lgan shaxslar uchun pandus hisobga olingan va chiqib tushish uchun 2 tomonlama tutqichlar o`rnatilgan.
- Yo‘laklar ko‘zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi ko`zda tutilgan.
- Hojatxonalarda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun alohida kabina hisobga olingan.
- Kirish eshiklari perimetri bo’ylab eni 100 mm bo’lgan kontrast rang bilan ajratib bo’yash ko’zda tutilgan.
- O`rindiqli aravachada harakatlanuvchilar uchun tribuna qismiga erkin chiqishi uchun maxsus ko’taruvchi moslama jihozlanishi ko'zda tutilgan.
- Tribuna qismida nogironligi bo’lgan shaxslar uchun alohida joylar hisobga olingan.

3.6. Energiya (tejamkorlik) samaradorlik.

Loyiha O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9 sentabrdagi PF-220 sonli farmon va 2025-yil 11-martdagi PQ-100-son qarori, O’zbekiston Respublikasi davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 31.03.2017 – yildagi bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi Vazirligining 2024-yil 30-noyabr 270-son buyrug'iga ilova asosida va QMQ 2.01.04-18, ShNQ 2.01.04-18, QMQ 2.01.01-22 ga asosan energiya tejamkorlik bo'yicha quyidagi ishlar qo'llanilgan.
1. Tomda issiqlik saqlash qatlami uchun Izolyatsiya - bazalt asosli mineralovata (γ=120 kg/m³), qalinligi 100 mm qatlami solingan.
2. Romlar (eshik va deraza) plastikli 1 kamerali steklopaket (ikki oyna), yon oynalarni devor bilan tirqishi qurilish penasi bilan to'ldirilgan.
3. Binoning sokoldan yuqori qismi tashqi devorlari 80 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=120 kg/m³) bilan qoplangan; binoni sokol qismida 30 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi “ПЕНОПЛЕКС” (γ=28 kg/m³) berilgan.
4. Binoning birinchi qavati pollari ostiga issiqlik izolyatsiyasi uchun qalinligi 50mm bo'lgan 1 qatlam “ПЕНОПОЛИСТРОЛ” (γ=28 kg/m³) solingan.
5. Elektr simlari va jixozlari O’zbekiston Respublikasi 2011-yildagi Elektr-uskunalarni o'rnatish qoidalari (EO'Q) va QMQ 3.05.06-97, QMQ 2.04.17-19 va ShNQ 2.08.01-05 yildagi meyorlarga asosan bajarilgan. Elektr energiyasini tejash maqsadida loyiha ishlarida quyosh panellari o’rnatish qabul qilingan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat datchiklari kuzda tutilgan.

3.7. Yong‘in xavfsizligi qismi.

Loyiha bilan universitetga qarashli sport majmuasining tribuna (minbar osti) binosini

rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Yong‘in xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘zda tutilgan tadbirlar: Loyiha hujjatlarida devorlarning tashqi fasad qismi yonmaydigan (bazalt tolali himoya qatlami ustidan travertin suvoq) materiallar, tashqi yong‘in o‘chirish maqsadlari uchun bino ikki tarafida joylashgan 2 ta yong‘in o‘chirish gidrantlari, yong‘in signalizatsiya tizimi habarlagichlari, odamlarni yong‘indan xabardor va evakuatsiya qilishni (ovozli va yorug‘lik) boshqarish tizimlari, chiqish joylarida yong‘in signalizatsiyasining qo‘lda ishlovchi tashvishgohlari.

3.8. Smeta qismi:

Ishlarning qiymatini hisoblash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida" 2003-yil 11-iyundagi 261-son qaroriga muvofiq resurs usulida amalga oshiriladi, "O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida" 2004-yil 12-maydagi 226-son va SHNQ 4.01.16-09 ga muvofiq shartnomaviy joriy narxlarda qurilish qiymatini aniqlash qoidalari.

Mehnat xarajatlari (1 kishi/soat uchun) O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 2-choraklik bilan bo‘lgan davrda “Qurilish” tarmog‘ida o‘rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalarni hisobga olgan holda 51 069,26 so‘m qabul qilindi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Isitish va shamollatish tizimi.

Tashqi havo hisobiy harorati sovuq davr uchun -14°C deb qabul qilingan. Isitiladigan umumiy maydon 1170.11 m² ni tashkil qiladi. Isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchi sifatida 90°C haroratdagi suv ishlatiladi. Isitish asboblarining sirt harorati 70°C dan oshmasligi kerak. Isitish tizimi tarmoqlangan ikki quvurlik tizim ko‘rinishida, majburiy aylanish bilan qabul qilingan. Isitish asboblari sifatida bimetall radiatorlar qo‘llaniladi. Quvurlar sifatida alyuminiy bilan mustahkamlangan polipropilen quvurlar (PN=25) (PP-FIBER yoki boshqa sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar) qo‘llanilgan. Isitish tizimidan havo chiqarish radiatorlarning yuqori qismida o‘rnatilgan havo chiqarish kranlari orqali amalga oshiriladi.

Shamollatish tizimi.

Shamollatish loyihasi loyihalash topshirig‘i, arxitektura-qurilish va texnologik chizmalar asosida ishlab chiqilgan. Binoda tabiiy va mexanik induktsiya bilan ta'minot va egzoz ventilyatsiyasi qabul qilingan.

4.2. Ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya bo'limi (BK).

Binoda quyidagi tizimlar loyihalashtirilgan:

xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti – B1;

issiq suv ta’minoti – T3;

retsirkulyatsion suv ta’minoti – T4;

yong‘inga qarshi suv ta’minoti – B2;

xo‘jalik-maishiy kanalizatsiya – K1.

B1 xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti tizimi “Sport majmuasi” binosining xo‘jalik va ichimlik ehtiyojlari uchun suv yetkazib berishni ta’minlaydi. B1 quvuri – □□50m m diametrli PPR quvur bilan kiritiladi. Suv hisoblagich tashqi suv tarmog‘ining ko‘zatuv qudug‘ida joylashtiriladi. B1 xo‘jalik-ichimlik suv tizimi tarmoqli (tupikovaya) sxema bilan amalga oshirilgan. Yong‘inga qarshi suv ta’minoti tarmog‘i B2 – Ø57 mm diametrli po‘lat quvurlardan tashkil topgan. Ichki yong‘in o‘chirish uchun suv sarfi hisob-kitob bo‘yicha 2x2,6 l/s ni tashkil etadi.

Issiq suv ta’minoti tizimiga qushimcha binoning tom qismiga quyosh suv isitgichlari

urnatilgan. “Sport majmuasi” binosining xo‘jalik-ichimlik ehtiyojlari uchun markaziy issiq suv ta'minotidan yetkazib berishni ta’minlaydi. Maishiy kanalizatsiya tizimi (K1) binodagi sanitariya jihozlaridan chiqadigan oqava suvlarni ichki hudud kanalizatsiya tarmog‘iga uzatish uchun mo‘ljallangan. K1 tizimi Ø50–100 mm diametrli PVX quvurlardan loyihalashtirilgan. Tashqi suv ta'minoti va kanalizatsiya bo'limi (HBK).
Qurilayotgan binolarini ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun mavjud tarmoqqa ulanish loyihasi ishlab chiqilgan,mavjud tarmoqqa polimer-bitum qoplamali elektr payvandlangan po‘lat quvur, Ø 89x4.0 mm, Ø 57x3.0 mm va diametri Ø50 mm bo'lgan PPR tipidagi polipropilen quvurlar qo'llaniladi va suv hisoblagich o'rnatilgan. Tarmoqning chuqurligi er yuzasidan 1,2 m. Tarmoqqa prefabrik temir-beton buyumlar va boshqalardan yasalgan quduqlar o'rnatiladi. 901-09.11.84.
Kanalizatsiya uchun markazlashtirilgan tarmoqqa ulanishga ruxsat etilgan va binodan chiqish temir-beton kanalda amalga oshiriladi va har bir chiqish joyida nazorat qudug'i o'rnatiladi.

4.3. Tashqi elektr ta`minoti:

Hisobiy quvvati - 43 kVt.
Tribuna.
II toifali iste'molchi.
" Toshkent shahar, Olmazor tumani, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga qarashli 11-uy manzilida joylashgan Sport majmuasi (minbar osti binosi)ni rekonstruksiya qilish" elektr ta' minoti loyihasi 26. 06. 2025-yil, 2628063637-sonli AJ Toshkent SHETK tomonidan berilgan texnik shartga asosan bajarilgan. Asosiy elektr ta`minoti uchun ulanish nuqtasi mavjud TP-3880 ning past kuchlanishli shiti RU-0.4 kV qabul qilingan. Elektr energiyasini hisobga olish ASKUE tizimiga mos keladigan KAIFS MA-310U hisoblagich o`rnatilgan. Elektr energiyasini taqsimlash uchun obyekt shitlarigacha xandaqda AVVG turdagi har xil kesimdagi kabellardan foydalanilgan. Tashqi hududni yoritishda quyosh batareyasidan quvvatlanadigan 90 Vt quvvatli LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan,
Ichki elektr ta`minoti:
Asosoiy taqsimlash qurilmasi sifatida PR11 tipidagi shit ishlatilgan. Qavatlarda taqsimlash qurilmasi SHS tipidagi shitlar ishlatilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat datchiklari ko`zda tutilgan Yoritish tarmoqlari VVGng (3x1,5) mm2 kabellari bilan PVX quvurlarda tashlangan. Loyihada binoning tom qismiga 89 dona quvvati 550 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatilishi va tarmoqqa 20 kVt va 30 kVt quvvatli invertor orqali ulanishi ko'rsatib o'tilgan. Elektr tarmoqlari PVX quvurlarida turli kesimdagi VVGng kabellari devor ichi bo`ylab yotqizilgan. Zaminlash 50x50x5mm po'lat burchak va 40x4mm po'lat belbog' orqali amalga oshirilgan.

4.4. Kuchsiz tok.

Yong'in signalizatsiyasi.
Boshqaruv paneli sifatida “Altay-8” rusumli qurilma binoning nazoratchi xonasiga o’rnatilmoqda. Yong'in signalizatsiyasining datchiklari sifatida “IP 212-141” tutun datchiklari va qo'lda yong'inga qarshi “IPR 513-10” datchiklar o’rnatilishi ko’zda tutilgan. Barcha yong'in signalizatsiya halqalari KSPV 2x0,5 kabellari orqali amalga oshiriladi va boshqaruv paneliga chiqariladi. Kompleks yong'in signalizatsiya tarmog'ining tarqatish tarmoqlari TPP kabellari yordamida amalga oshiriladi. Loyiha echimlari (2-toifa SOUE) ogohlantirish va evakuatsiyani boshqarish tizimini o'z ichiga oladi va yorug'lik ovozli ogohlantirish va yorug'lik ko'rsatkichlari "EXIT" tablolari bilan jihozlanadi. Yong'indan xabardor qilish ovozli xabar berish uskunalari

(оповещатели) ОРОР 124-7 ovozli sirenalar orqali amalga oshiriladi. Yong’indan xabardor qilish tizimi TRP 1x2x0,5 kabellari orqali amalga oshiriladi.

Video kuzatuv.

Videokuzatuv tizimi binolardagi ichki IP kameralari va binoga yaqinlashishni kuzatish uchun tashqi kameralar orqali amalga oshiriladi. Raqamli video yozuvchisi sifatida 24 kanalli qattiq diskni qo'llab-quvvatlaydigan DS-7224NIE2 - NVR rusumli raqamli video yozuvchisi har birining sig‘imi 4 Tb gacha bo‘lgan disklar bilan ta’minlanadi. Barcha videokuzatuv tarmoq uskunalari telekommunikatsiya shkafiga nazoratchi xonasiga joylashtiriladi. Videokuzatuv tarmogqlari KSVPV 4x2x0,5 kabellari bilan amalga oshiriladi.

Strukturaviy kabel tizimi.

SKT tarmoqlari KSVPV 6 - 4x2x0.57 kabeli yordamida amalga oshiriladi. Wi-Fi routerlar va internet tarmoqlari server xonasiga joylashtirilib XL VDI 19" 6U telekommunikatsiya shkafiga ulanadi. Loyihada xonalarga kompyuterlar uchun o'rnatilgan RJ-45 rozetkalari yoki televizorga o'rnatilgan SMART tyuner orqali IP televizoriga kirishni ta’minlaydi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Loyiha tasdiqlangan:

- Toshkent shaxar Qurilish bosh boshqarmasi Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo‘yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2025-09-10 dagi 210589753-sonli xulosasi.

5.2. Loyiha kelishildi:

Hududiy yong‘inga qarshi nazorat xizmati bilan;

Hududiy sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi organi bilan;

O‘zkomnazorat hududiy boshqarmasi bilan;

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **17 021 065 515** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

2 044 632 016 so'mga kamaytirilib, **14 976 433 499** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **11 962 676 196** so'm

Asbob-uskunalar: **1 409 139 427** so'm

QQS: **1 604 617 875** so'm

Bundan tashqari:

Normativ mehnat hajmi – 56591,07 kishi-soat.

6.1. Ekspertizaning izohlari va takliflariga ko‘ra, smeta hujjatlariga quyidagi tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- qabul qilingan standartlar SHNQ ga muvofiq tuzatildi;

-mash/soat resurs ko‘rsatkichlari, odamlar/soat mehnat xarajatlari aniqlandi;

- qurilish materiallari va buyumlarga bo‘lgan ehtiyoj aniqlandi;

- materiallarni tashish xarajatlari aniqlandi;

- pudratchining boshqa xarajatlari aniqlandi;

- smeta me’yorlari qabul qilingan loyihaviy qarorlarga muvofiqlashtirildi.

- loyihaning qabul qilingan qarorlariga muvofiq ish hajmlari to'g'rilandi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-punktiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning

ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.
6.3. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:
- SHNQ 4.01.16-09 ning 4-bobi barcha bandlari asosida shakllantirish talab etiladi.
- ekspertiza tomonidan smeta hujjatlari tarkibida kelgan ish hajm turlari ratsenkalari va narx navolarida tarkibida aniqlangan nomunosibligi bo’yicha berilgan kamchiliklar va takliflar to’liq sharhlanib, izoh va takliflar asosida bartaraf etilgan holda taqdim etilishi kerak;
- Hujjatlar ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim etildi.
- "Shaharsozlik Hujjatlarini Ekspertiza Qilish Respublika Markazi" DM Samarqand viloyati huduhiy boshqarmasi buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan materiallar, uskunalar va jihozlarning narxi va dastlabki ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi;
- Ob’yekt birlamchi yong’inga qarshi asbob-uskunalar bilan ta’minlansin.
6.4. Loyiha mualliflari ekspertiza tavsiyasiga binoan buyurtmachiga tuzatilgan chizmalar va smeta hujjatlarini topshirishlari kerak.
6.5. Shuningdek, buyurtmachidan SHNQ 4.01.16-09 ning barcha bandlariga to’liqligicha amal qilish lozimligi takidlananib, talab tarzida:
- Loyiha smeta qiymati ko’rsatilgan choraklik davr - real narxlarga nisbatan yuqoriligi, o’rta-real narxlarga nisbatan nomunosbligi va yuzasidan smeta qismi eksperti tomonidan tanbexlar berilib, smeta qiymati o’rta asosli - narxlar bilan shakllantirilishi va SHNQ 4.01.16-09 ning barcha bandlariga to’liqligicha amal qilish lozimligi;
- SHNQ 1.03.06-09-13 ga muvofiq shartnoma bo‘yicha import qilingan texnologik asbobuskunalarni, materiallarni sotib olish va shartnoma asosida yetkazib berish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmadi va hisobga olinmadi;
- Ushbu hulosa ob’yekt qiymatini faqatgina tahminiy boshlangich qiymatini aniqlash maqsadida tavsiya etilgan bo'lib (SHNQ 4.01.16-09 ning 4-bo’lim), haqiqiy ob’yekt yakuniy qurilish qiymatini buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, nazorat o‘lchovi natijalariga ko‘ra haqiqatda bajarilgan fakt ishlar natijalari asosida haqiqiy qiymat aniqlash (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20 maydagi 321-son qarorida) va qonunchilik talablarida keltirilgan asosli hujjatlar talablari to’liq bajarilishi, shuningdek, fakt-tasdiqlangan narxlar bilan sarhisob qilish talablarini bajarish sharti bilan bilan tavsiya etildi.
- Buyurtmachining smeta qismida shakllantirgan narxlar amaldagi narxlarga mos emasligi, aksariyati asossiz va qimmatligi, shuningdek buyurtmachi tashkilotning shaxsan o’zi sihlab chiqgan hamda viloyat hokimi o’rinbosari tomonidan tasdiqlanib, 2025-yil obyektlari qiymatlari shakllanishi va ushbu obyektlarni 2025-yil obyektlarini moliyalashtirish uchun taqdim qilingan “ishchi guruh kelishilgan narxlar dalolatnomasi” yuzasidan buyurtmachiga o'rta narxlar bilan ya'ni joriy davrda hos bo'lgan asosli narxlar bilan shakllantirish kerakligi yuzasidan ekspertiza talablari buyurtmachi va loyihachi tomonidan sharlanmasdan va tanbexlar ijobiy hal qilinmaganligini sababli ushbu xulosa faqat SHNQ norma ya’ni “ish hajmlar yuzasidan” ko'rib chiqildi, ya’ni buyurtmachi taqdim qilgan javob xatlariga asoslanib (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-punktiga muvofiq «Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha echimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir»), loyihani ko‘rib chiqish jarayonida ekspertlar tomonidan narxlar yuzasidan berilgan takroriy tanbex va izohlar

buyurtmachi tomonidan qabul qilinmaganligi va buyurtmachi javob xatlarida keltirilgan izohlar asosida ushbu xulosa – “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrdagi PQ-454 son qarorining 3-bo’lim va 4-bo’limning “v” bandiga asoslanib, smeta qismi faqatgina – hajm va texnik(narx qismidan tashqari) norma talablari asosida ko’rib chiqildi va kelgusida tovar, ish va xizmatlarning to’liq narx qismi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi “Loyihalarni va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK ko’rigiga ijobiy xulosa olish sharti bilan yo’naltirildi. Mazkur talab bajarilmagan taqdirda ushbu yig’ma ekspert xulosasi o’z kuchini yo’qotadi.

6.6. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

7.1. "**Toshkent shahar, Olmazor tumani, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetiga qarashli 11-uy manzilida joylashgan Sport majmuasi (minbar osti binosi) ni rekonstruksiya qilish.**" ishchi loyihasi ekspertiza ko’rigi natijalari va 6.2-:-6.5 bandlardagi izohlarni hisobga olgan holda ushbu smeta hujjatlarini ko’rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-son, 23.11.2022-yildagi №665 sonli qarori, 4.01.16-09 SHNQga muvofiq qurilish qiymati tavsiyaviy tusga ega bo‘lib Buyurtmachining bajarilgan ishlar uchun pudratchi bilan o‘zaro hisob-kitob qilish uchun asos bo‘la olmaydi. Qurilish qiymatini belgilash bo‘yicha yakuniy qaror buyurtmachi tomonidan tender savdolari yakuniga asosan qabul qilinadi. (7.2-band Pudratchi tendar savdalari natijalariga asosan aniqlanadigan obyektlar uchun qabul qilinadi).

Bosh ekspert: Jumayev Akmal Ziyadovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abdiraxmonov Pulat Miyliyevich, Abdiyev Mirzabek Sayitmuradovich, Vladikina Anna Vasilevna, Karimov Nemat Xxx, Abdukarimov Baxodur Istamovich, Shamsiyev Ma’mur Maxmudovich, Xakimov Olimjon Kamiljanovich, Sharipov Alisher Abdusamiyevich, Tuyg‘unov Kamol Komiljon O‘g‘li